



SOME REFLECTIONS ON OUR NATIONAL LANGUAGE

Roviyajon ABDULLAEVA

Professor, Doctor of Sciences (DSc) in Philology
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
Email: roviyajon47@mail.ru
ORCID iD: 0009-0003-4078-5682

ABSTRACT

The article examines the historical development of the Uzbek language, its role in shaping national identity, and its significance as the state language of Uzbekistan through a popular-scientific perspective. It highlights the contributions of early Turkic scholars and writers, including Mahmud al-Kashgari, Yusuf Khass Hajib, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, and the Jadid intellectuals, to the preservation and advancement of the native language. The author discusses language policy in the years of independence, emphasizing the importance of protecting linguistic purity, strengthening the legal status of the state language, enriching its vocabulary, and promoting language culture. The article also addresses contemporary challenges posed by globalization and stresses the need to preserve the Uzbek language as a vital component of national heritage, historical memory, and cultural identity for future generations.

MILLIY TILIMIZ XUSUSIDA BA'ZI FIKR-MULOHAZALAR

Roviyajon ABDULLAYEVA

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek tilining xalq va millat taraqqiyotidagi o'rni, uning tarixiy ildizlari, boy madaniy va ma'naviy merosi hamda davlat tili sifatidagi nufuzi ilmiy-ommabop yondashuv asosida yoritilgan. Turkiy yozma yodgorliklardan boshlab Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hamda jadid ma'rifatparvarlarining ona tili ravnaqi yo'lidagi xizmatlari tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan til siyosati, davlat tilining huquqiy maqomini mustahkamlash, milliy tilni rivojlantirish, uning sofligini saqlash, terminologiyani takomillashtirish hamda globallashtirish sharoitida til madaniyatini yuksaltirish masalalari muhokama etiladi. Shuningdek, milliy tilning tarixiy xotira, milliy tafakkur va ma'naviy qadriyatlarni asrashdagi o'rni yoritilib, ona tiliga hurmatni kuchaytirish, uning boy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hamda kelgusi avlodlarga asl holida yetkazish zarurligi asoslab beriladi.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О НАШЕМ НАЦИОНАЛЬНОМ ЯЗЫКЕ

Равияжон АБДУЛЛАЕВА

Доктор филологических наук (DSc), профессор
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В статье в научно-популярной форме рассматриваются история развития узбекского языка, его роль в формировании национальной идентичности и значение как государственного языка Республики Узбекистан. Освещается вклад выдающихся представителей тюркской культуры и литературы – Махмуда Кашгари, Юсуфа Хас Хаджиба, Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабура, а также джадидских просветителей – в сохранение и развитие родного языка. Анализируются языковая политика периода независимости, вопросы укрепления статуса государственного языка, сохранения его чистоты, обогащения словарного состава и повышения речевой культуры. Особое внимание уделяется современным вызовам глобализации и необходимости сохранения узбекского языка как важнейшей составляющей национального наследия, исторической памяти и культурной самобытности.

“Turklarni o‘ldirish mumkin, ammo yengib bo‘lmaydi”.
Napoleon Bonapart

O‘zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligiga erishganligi munosabati bilan va yangi jamiyatimizning ilk kunlaridanoq repressiyaga uchragan o‘tmish milliy qadriyatlarimizni nomlarini tiklash, oldimizda ularning umumjahoniy o‘rni, qadr-qimmat va qudratini tayin etish imkoniyati tug‘ildi. Darhaqiqat, Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek, “bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzolalar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqdi. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari manashu zaminda yaratilgan, sayqal topgan”i bor haqiqat.

“Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi”. “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdir” degan edi ma’rifatparvar Abdulla Avloniy.

Tabiat yaratgan eng oliy ne‘mat – milliy tilimiz (turkiy tilimiz – A.R.) juda qadimiydir. Aslida turkiy tillarimizning tarixi VI–VII asrlardagi dastlabki, eng qadimgi yozma yodgorliklar bo‘lgan O‘rxun-Enasoy tosh bitiklariga borib taqaladi.

X-XI asrlardan boshlab esa jahon arenasidagi buyuk turkiyshunos, tilshunos, qoraxoniylar sulolasiga mansub Mahmud Qoshg‘ariyning “Turkiy tillar devoni” deb atalmish “Devoni lug‘otit turk” asari, shuningdek, turkiygo‘y shoir, mutaffakkir, davlat arbobi Yusuf Xos Hojibning bugungi kunda ko‘p tillarga tarjima qilinib, turli tillarda jahonning eng nufuzli kutubxonalarida ko‘z qorachig‘iday saqlanayotgan va turkiy tillarning cheksiz boyligi, jozibasi namoyon etilgan, mashhur “Qutadg‘u bilig – Saodatga boshlovchi bilim” asari haqida nainki ilmiy-publisistik maqolalar, balki bir qancha ilmiy-fundamental tadqiqotlar ham yaratilgan. Shu boisdan ham o‘sha davrlardagi ma’rifiy harakat – so‘zni milliy boyligimiz deb bilgan, ona tilimizning sofligi uchun kurashgan, Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg‘ariy singari buyuklarimizdan boshlangan desak, xato bo‘lmas.

Maboda “*shams-ul millat*”imiz bo‘lmish Hazrat Mir Alisher Navoiyni eslasak, ul zot betakror, fenomenal ijodkor, davlat arbobi bo‘lishdan qat’i nazar, zakiy olim – yetuk tilshunos ham bo‘lgan. Navoiy butun umri davomida o‘zbek tilini nafaqat adabiy til qilish uchun, balki uni har qanday yot unsurlardan tozalash uchun ham kurashgan, bunga uning tilshunoslikka oid ilmiy ishlari guvohlik beradi. Hatto

temuriylar avlodidan bo'lgan Umarshayxning o'g'li, shoh va shoir hamda harbiy sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning "Xatti Boburiy" asarida ham, garchi u ommalashmagan bo'lsa-da, qadimiy turkiy tilimizning sofligi uchun kurash harakatlari aks ettirilgan.

Shu o'rinda, o'tgan asrning boshlarida Turkiston jadid-ma'rifatparvarlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Yunus Mashriq – Elbekning ham milliy til, imlo siyosati borasidagi sa'y-harakatlarini eslash joizdir. Bu harakat natijasi o'laroq Toshkentda Abdurauf Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" tashkiloti tuzilganini ham bilamiz. Bu tashkilot bir qancha sho'balardan iborat bo'lib, "Til va imlo" sho'basiga dastlab Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, so'ngra Yunus Mashriq-Elbek rahbarlik qilgan.

Abdurauf Fitrat o'zining turkiy til va mumtoz adabiyot taraqqiyot bosqichlarini o'rganib chiqqan, "Tilimiz" rubrikasi ostidagi maqolalarida (Fitrat shu nomda ketma-ket ikkita maqola yozgan – A.R.) tilimizning boyligi va baxtsizligi sabablarini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Uning "Turkistonda ruslar" (1918) hamda "Angliz va Turkiston" (1918) singari maqolalari aynan shu – til masalasi ruhida yozilgandir. Fitrat milliy tilimiz baxtsizligini tashqi kuchlar ta'siri – aynan arab bosqini bilan bog'lab, uni tilimizga arabiy va forsiy so'zlarning o'r'nashib qolgani bilan izohlaydi. 1937-yilda Abdurauf Fitrat mustabid tuzum tazyiqi ostida hibsga olingan bo'lsa, 1938-yil 4-oktabrda xalqqa e'lon qilinmay Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon bilan birga otib tashlangan edi.

O'sha kezlarda Abdurauf Fitrat turkiy xalqlarning takrorlanmas daholarini, fenomenlarini kuyunchaklik bilan eslab: "... dunyoning eng buyuk hakami Ibn Sino turkdir. Ikkinchi Arastu atalgan Forobiy turkdir. *"Vahdati vujud"* falsafasining imomlaridan bo'lg'on Jaloliddin Rumi turkdir. Forsiy adabiyotining payg'ambarlaridan bo'lg'on Nizomiy dahiy turkdir. Shu yerlarda otlari yozilg'on kimsalarda turk ulusini emas, butun dunyoning ulug' kishilaridan erurlar. Bunlar o'z bitiklarini turkcha yozsalar edi, butun turk ulusining holi, ehtimol, boshqa turli bo'lur edi. Baxtsizlik bundan-da ortiq bo'lurmikan?!" – deb yozgan edi.

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, "Chig'atoy gurungi" tashkilotining ham maqsad va vazifalari Turkiston hududida yashovchi turkiy xalqlar madaniyati, san'ati, adabiyoti, tarixi, til imlosi kabi sohalarni o'rganish bilan birga, milliy tilimizni yot unsurlardan tozalash, ya'ni uzoq yillar davomidagi arab bosqini tufayli tilimiz tarkibida o'r'nashib qolgan arabiy va forsiy so'zlarni turkiychaga (o'zbekchaga – A.R.) almashtirish bo'lgan. Bu jarayonda Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Yunus Mashriq – Elbeklar faol ishtirok etishgan. O'sha yillari vaqtli matbuotda milliy tilimizning sofligi, milliy mumtoz adabiyotimizning ravnaqi uchun o'zining maqolalari bilan jadid munaqqidi Vadud Mahmudning ham faol ishtirokini ko'rish mumkin. Shu o'rinda dog'istonlik mashhur avar shoiri Rasul Hamzatovning:

Avar so'zni tinglab kirdi menga jon,

Ohista tirildim va shunda bildim:

Meni tuzatolmas hech dori-darmon,

Jonimga masihdir shu ona tilim.

Mayli, kim qay tildan zavqu shavq olsa,
Mening o'z tilimga ming jonim fido.
Erta ona tilim agar yo'qolsa,
Men bugun o'lishga bo'lurman rizo.

Mayli, qashshoq bo'lsin, mayli, behasham,
Lekin mening uchun aziz va suyuk.
Jahon minbaridan yangramasa ham,
Ona tilim menga muqaddas, buyuk.

(E.Vohidov tarjimai)

kabi satrlari yoki Xurshid Davronning ona tilimiz qadr-qimmatini haqidagi quyidagi misralari ham yodga keladi. Ya'ni,

Kelib ketdi necha dunyolar
Kuldi hayot, yig'ladi o'lim
Sen deb qurbon bo'ldi bobolar
Ular ketdi, sen qolding tilim.

Jahon tanigan, o'zbek hikoya janrining mohir ustasi Abdulla Qahhor hali o'tgan asrning 60-yillaridayoq Fridrix Engels nomidagi Toshkent chet tillari pedagogika instituti (bugungi O'zDJTU)dagi talabalar bilan bo'lgan uchrashuvida: *"Mening sizlarga aytadigan eng zarur gapim shuki, sizlar joylarga chet tillari bilan birga balki birinchi navbatda o'z ona tilingizga – o'zbek tiliga – cheksiz muhabbat tuyg'usini olib boringlar. O'zbek tili g'oyat boy, nihoyatda chiroyli, har qanday fikru tuyg'uni ifoda qilishga qodir ekanligini amalda ko'rsatinglar! Qayerda va qanday sharoitda ishlamanglar, til madaniyatimizning mash'ali bo'linglar"*, degan edi.

Turkiygo'y xalqlarning g'ururi Alisher Navoiy, buyuk temuriylar avlodidan bo'lmish Umarshayxning farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur kabi fenomenal klassiklarimiz, Xorazmning faxri va ko'rki Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II – Feruz va Shermuhammad Munis kabi shoiralarimizning g'azallarida o'zbek tilining kamalak rang jilosi, tarxi-tarovati taralib turadi.

Haqiqatan ham, Abdulla Qahhor aytganidek, yuqorida eslagan shoirilar *"til madaniyatining mash'allari"* edilar. Biroq shunday boy, nafis, yoqimli musiqaday sado taratib turadigan tilimiz taqdiri ulkan Rus davlatini barpo etish maqsadida, Sobiq Ittifoq hukmronligi davrida, mushkul ahvolga tushib qolgan edi. *"Bir davlatning ichida turli millatlar bo'lishi zararlidir"* shiori bilan yashagan *"rus og'a"*larimizning asl maqsadi, niyati millatlarni nafaqat yaqinlashtirishga, balki ularni qo'shib yuborishga intilish bo'lgan. Bu bilan rus birodarlarimiz milliy xalqlarning nomlarini tarix sahifalaridan o'chirib tashlashga uringan edilar, desak yanada to'g'riroq bo'ladi. Aytish joiz bo'lsa, bu oldindan o'ylangan rejaga ma'lum ma'noda erishildi ham. Shu payt bexosdan inson badiiy tafakkurining noyob durdonalarini yaratib, dunyo madaniyati, badiiy adabiyoti va san'ati sahnalarini zabt etgan, XX asr badiiy-epik

tafakkur daholaridan biri, sevimli jahoniy qirg'iz adibimiz Chingiz Aytmatovning kuyunchaklik bilan: *"Markaziy Osiyo, Turkiston – katta madaniyat o'chog'i, bu yerda jahon madaniyatini boyitgan siymolar tug'ilgan va yashagan... Shunday katta madaniyat vorislari bo'lgan bizlar o'z boyligimizdan yetarli foydalana olmadik, balki foydalana olishga juda ustalik bilan imkon bermadilar, desam to'g'riroq bo'lar. Bir so'z bilan aytganda, sovetlar davrida bizlarning madaniyatlarimiz cheklanib qoldi, milliy muammolar, masalalar ko'paydi. Til – madaniyatning mustahkam ustunlaridan biridir. Tilga, milliy tillarga munosabat salbiy edi. Bizning tillarimiz asta-sekin o'lib borishi kerak edi, shundoq bo'layotgan edi ham. Tillarimiz to'rt devor ichiga haydaldi, natijada kamolot topishi qiyin bo'ldi va jahon taraqqiyotidan chetda qoldi. Og'izda tillar teng deyilsa-da, amalda unday emas edi, tillarimiz dunyo bozoriga chiqa olmadi. Bir misol keltiraman. Bundan o'n yillar avval Frunze (hozirgi Bishkek)da, qirg'iz respublikasining poytaxtida, bor-yo'g'i bitta qirg'izcha maktab bor edi. Qirg'iz tilida esa bolalar bog'chasi yo'q edi. O'sha vaqtda men bu holni tanqid qilib chiqqanimda, fikrimga hatto qirg'izlarning o'zlari qarshi chiqqan edilar. Mana, Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishdilar, vaziyat, ahvol tamoman o'zgarmoqda",* degan dard to'la, tug'yonli fikrlari xotiraga keladi.

Turli millat xalqlarining yaqinlashuvi yoxud qo'shib ketishi, o'z-o'zidan ma'lumki, har xil tillar yaqinlashuvi, birikib ketishi bilan birgalikda sof, toza qonli millatning ham yo'qolishi demakdir. Shu boisdan ham ona tilimiz keyingi yuz yillikda rus va boshqa tillar yaqinlashuvi, aralashuvi natijasida ancha xiralashdi, qashshoqlashdi. Oxir-oqibatda bu tilshunoslik ilmiy jarayonida *"Til ekologiyasi"* degan atamani tug'dirdi. Biroq *til* va *millat*, *millat* va *elat*, *urug'* va *qabila* kabi juft kategoriyalik tushunchalar bugun *Milliy mustaqillikka* erishgan kunlarimizdagina o'z qadrini topmoqda.

Shu o'rinda, *til* va *millat* ustidan hokimlik qilish uchun ancha ilgari, xali asrimiz boshlaridayoq, yuqoridan botiniy kurash boshlanganligi haqida o'qiganim kitobni eslashni joiz topdim. Bu botiniy kurash dasturi yuqoridagi ma'murlar tomonidan jiddiy o'ylangan edi. Ular oldida bir millatni, ikkinchi bir millat ustidan hokim bo'lishi uchun, uni avvalambor eng noyob ma'naviy xazinasini bo'lmish tilidan ayirib, uni o'zga tilda gapirtirish va shu orqali *millatni yo'qotish* degan masala ko'ndalang turardi. Bu davlat dasturiga asosiy vazifa qilib kiritilgan ham edi. Chunki, tilidan mahrum bo'lgan xalqni ham ma'naviy, ham ijtimoiy-siyosiy jihatdan zabt etish oson edi-da!

Bu jiddiy o'ylangan reja xalqlarda shubha uyg'otmaslik uchun sekin-asta, juda ustalik va ehtiyotkorlik bilan bir necha o'n yillar davomida amalga oshirilishi nazarda tutilgan edi, degan edi A.Aftorxonov o'zining *"Kreml saltanati"* kitobida. Buni o'z vaqtida to'g'ri anglagan va bunga qarshi bosh ko'targan, millatini, milliy tilini, umummilliyligini himoya qilgan turkiyzabon xalqlarimiz orasidagi ziyolilarimiz, jadidlarimiz o'sha yillari qirilib ketgan edilar. Darvoqe, shu o'rinda 1930–1950-yillardagi dahshatli qatag'on – repressiya davrlarini eslash kifoyadir.

Xususan, hech narsaga alishtirib bo'lmaydigan, har qanday narsa bilan solishtirib ham bo'lmaydigan, Alloh tomonidan faqat inson uchun yaratilgan bu oliy ne'mat sekin-astalik bilan avval arab-fors tillari, keyingi davrlarda esa G'arbiy

Yevropa tillari aralashuvi tufayli o'zining asliyatini, tarxi-tarovatini yo'qota bordi. Natijada biz shunday bir notavon ahvolga tushib qolgan edikki, natijada milliy xotira va e'tiqodimizdan butunlay ajralib qolishimizga bir bahya qolgan edi. Bu, albatta, bizning yaqin o'tmishimiz edi.

Sharq olami, umuman, sharqliklar dunyosining turli qirralari, barcha davrlarda g'arbliklarni mahliyo qilib kelgani qadim tarixdan ma'lum, demak bu ayon haqiqat. Bundan tashqari, g'arbliklar sharqliklarni tobe qilish, o'zlariga qaram qilish uchun turli yo'llar bilan ularni bosib olishga harakat qilishgani ham bor gap. Biroq bu singari bosqinchilik harakatlari XVIII asr o'rtalarida G'arbiy Yevropada Fransiya davlat arbobi, harbiy sarkarda, Fransiya Respublikasining imperatori Napoleon Bonapartning Sharq tomon yurishlari, undan keyingi asrda esa turli millat xalqlarining million-million Farhod misol botir farzandlarining murdalarini oting o'chgur "*kremasiya*" deb atalmish "olov pechka"ga tashlab, yoqib yuborib, yostig'ini quritgan, beshafqat Adolf Gitler boshlagan dahshatli Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) misolida ham aniq ko'rishimiz mumkin. Bularning barini niyati bir: maqsadi nafaqat sharqiy hududlarni, balki butun dunyoni zabt etish bo'lgan edi. Ularning bu singari agressiv harakatlariga, yer yuzidagi xalqlarni o'ziga qaram qilib olish va shu asnoda sharqiy hududlardagi xalqlarning milliy koloritni, milliy tillarni yo'qotib, buning evaziga o'z tillarini iste'molga kiritib, ularga gegemonlik qilishni ko'zlaganlar, deb izoh berish mumkin.

Shukrlar bo'lsinkin, xalqlarimiz tish-tirnog'i bilan qattiq kurashishdi va g'alaba qozonishdi. Biroq bu g'alaba juda katta qurbonlar, juda katta ma'naviy-ma'rifiy hamda moddiy yo'qotishlarimiz evaziga bo'ldi, eng asosiysi, ularning uzoqni ko'zlab tuzgan bu rejasi ro'yobga chiqmadi. Lekin g'arbliklar uzoq yillik kurashlar jarayonida o'zlarining Sharqqa, turkiyo'y xalqlarga teng kela olmasliklarini, ularni yenga olmasliklarini anglab yetgan edilar, uzoq jang-u jadallarda chiniqqan o'tmish tarix bunga jonli misoldir. Nafaqat o'tmish tarix xalqlari, hatto zo'r ishtaha bilan katta maydonga chiqib, oqibatda yengilib, xomtama bo'lib qolgan mashhur tarixiy shaxs fransuz imperatori Napoleon Bonapartning "*Turklarni o'ldirish mumkin, ammo yengib bo'lmaydi*" qabilidagi nadomatli fikrlari ham buni tasdiqlaydi. To'g'ri, biror xalqni yengish va o'sha millatni qaram qilib qo'yish uchun, avvalambor, uning milliy tillarini, milliy adabiyotlarini yo'qotish kerak edi, buning uchun o'zini adabiyotini (ya'ni, fransuz, nemis, rus adabiyotini nazarda tutmoqdamiz – A.R.) o'quv dasturiga kiritish zarur bo'ldi, muayyan bir muddat milliy o'quv darsliklarimiz, adabiyotlarimizda bu voqelikka aylangani ham achchiq haqiqat. Ya'ni, o'zbek maktablari misolida olib qarasak, o'zbek adabiyoti "*shoirilar shohi – Dichterkönig*" Alisher Navoiy yoki Muhammad Rizo Ogahiy ijodi bilan emas, rus adibi Maksim Gorkiyning "Ona" romani bilan boshlanganini eslayman. Chunki, har bir millat kalomi, uning so'zi va ruhi uning tilida, milliy adabiyotida aks etishi bor gap edi. Napoleon Bonapart mamlakatda burjua harbiy diktaturasini o'rnatgan bo'lsa-da, so'z, matbuot va boshqa demokratik erkinliklarga barham bergan bo'lsa-da, turk (turkiylar) millatining xarakterini baholashga kelganda mardlik qilib "*ularni yengib bo'lmaydi*" deb to'g'ri qaror qabul qilgan edi.

Boshqa tillar (g'arb tillari) aralashib ona tiling o'zligini, o'z tarxi-tarovatini,

tarixini yo‘qotdimi, bora-bora u mansub xalq ham o‘zining qaysi millatga daxldorligi, mansubligi, qaysi urug‘-aymoqdan, elat va qabiladan ekanligini his qilish tuyg‘usidan sekin-astalik bilan mahrum bo‘la boradi. Demak, u xalqning, u millatning xotirasi so‘nadi, u xalq tarixi va o‘tmishini unutadi, oxir-oqibatda haqiqiy “manqurt”ga aylanadi.

1995-yilning kuz oylari (sentabr-oktabr-noyabr) edi, kamina Gyote institutining DAAD – Deutsche Akademische Austauschdienst (Nemis akademik ayirboshlash xizmati) stipendiati sifatida Olmoniyaga ilmiy ta‘tilga borganimda, Berlin shahridagi qadimgi milliy va madaniy-ma‘naviy boyliklar joylashgan Prussiya davlati Milliy madaniyatlar kutubxonasi va Berlin Fanlar akademiyasi kutubxonalarida Sharqiy Berlin Humboldt universiteti ma‘muriyati yo‘llanmasi bilan borib, bir muddat (2 oy) ishlagan edim. Bu imkoniyatdan foydalanib, universitet ma‘muriyati mendan nemis oriyentalist va turkolog olimlariga amaliy-suhbat darslarini o‘tib berishimni iltimos qilgan edi. Shu bahonada, Sharqiy Berlindagi Humboldt va G‘arbiy Berlindagi Fraye universitetlarining professor-o‘qituvchilari, turkiyshunos olimlari, ular safiga magistr va talabalar ham qo‘shilgan holda “Blocksenminare – amaliy mashg‘ulotlar”ni o‘tganimni eslayman. Shuningdek, Berlin Humboldt universiteti ma‘muriyati tomonidan menga “Gastdozentin unserer Universität – universitetimizning faxriy mehmon dotsenti” mazmunidagi tashakkurnoma bildirilib, bu ilmiy-pedagogik faoliyatimni tasdiqlovchi “die Bestätigung der Humboldt Universität – Humboldt universiteti guvohnomasi” ham berilgan edi.

Sharqiy Berlin Humboldt universiteti turkiyshunos doktor, professorlari Zigrid Klaynmihel, Tatyana Mo‘kkel, turkiyshunos-sotsiolog Brigitta Xoyer, faylasuf, doktor, professor Kristin Mo‘kkel va xitoy madaniy-ma‘rifiy olamini har taraflama o‘rganayotgan yosh juftlik tadqiqotchilar Gundula va Paul Zalklar, forsiyshunos yigit Tomas Shtaynbax, turk qizi Ayfar Durdixonim va yana boshqa turkiy tillarni o‘rganayotgan bir qancha bo‘lg‘usi yosh turkiyshunoslar bor edi “Blocksenminare – amaliy mashg‘ulotlar” guruhimizda. Bu o‘quv jarayonini tashkillashtirish va darsliklar bilan ta‘minlashni universitet qoshidagi Turkiston instituti rahbari, jahonning o‘n bir tilini mukammal egallagan, shu tillarda bemalol gapirisha oladigan hamda xorijiy o‘lkalarda emin-erkin ilmiy ma‘ruzalar qilib yurgan, ma‘rifatparvar jadid Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyna” jurnalining va yozuvchi Uchqun Nazarovning urush davri voqeliklari aks etgan tarixiy asarlarining nemis tarjimoni, “Do‘stlik” ordeni sovrindori, jahon arenasidagi fenomenal islomshunos olimi, doktor, professor Ingeborg Baldauf-Taalxammer xonim boshqargan edi. Birinchi darsimiz talablarga binoan Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning “Xalq” she‘rini sintagmalarga bo‘lib, talaffuzi va ohangini me‘yoriga keltirib o‘qish, matndagi qiyin so‘zlarni tarjima qilish, keyin she‘rdagi asosiy g‘oyani topish bo‘lgan edi.

Darvoqe, amaliyot, jonli davra suhbatlarini, Sharq va G‘arb olami diskursi bilan, shuningdek, nemis-o‘zbek hayotining turli jabhalari bilan bog‘liq va mentalitetiga xos har xil qiziqarli savol-javoblarni universitet ma‘muriyati xohishi va ruxsatiga binoan nemis xonadonlarida va talabalar yotoqxonalarida o‘tkazardik. Ayniqsa, professorxonimning islomshunoslik va etnologiya yo‘nalishiga doir “Afg‘oniston

o'zbeklari xalq qo'shiqlari" nomli ming betdan oshig'roq 2 jildlik qo'shiqlar to'plami bizga o'quv jarayonida juda asqotgan va o'zbekcha she'r va qo'shiqlardan parchalarni shu kitobdan tanlab olib foydalanganimiz esimda. Uchrashuv, suhbat va taassurotlarim o'sha yillar markaziy vaqtlı matbuotlarda o'z ifodasini topgan.

G'arbiy Berlin Fraye universitetining taniqli turkologi, turkiy olamni (Turkiya turklarini – A.R.) har taraflama mukammal o'rgangan, bu mavzuga doir xalqaro doiradagi ilmiy loyihalarda faol ishtirok etib, bir qancha monografiya va risolalar e'lon qilgan, Mayn daryosi sohilidagi Frankfurt universitetining islomshunoslik va turkiyshunoslik yo'nalishi bo'yicha professori, doktor Barbara Kellner – Haynkelle xonim bilan uchrashuvimiz va uning "Türkei – Turkiya" nomli kitobi haqidagi suhbatimiz ham nihoyatda foydali va sermazmun bo'lgan edi. Bu kichik jamoa va milliy tillar haqidagi hayajonga to'la o'y-fikrlarim, hayollarimni chulg'agan romantik his tuyg'ularimni yurtimga qaytgach, xotira tarzida o'zimning "G'arbiy Berlinda turkona xonadon", "Ingeborgning orzusi", "Chala mulla bo'lishdan qo'rqaman..." va h.k.z., yana shunga o'xshash sarlavhali bir necha tassurotlarim jamlangan ilmiy-publitsistik maqolalarimda batafsil yoritib bergan edim.

Darhaqiqat, "o'tmishi ko'milgan millatning istiqboli ham zulmat pardasi ostidadir". Ma'naviy-iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan inqirozga yuz tutgan mavjud davr avlodining istiqboli bora-bora ana shu "zulmat pardasi ostiga" yashirinayotgan edi. Shukurlar bo'lsinkim, orziqib kutilgan davrlar keldi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning sa'y-harakatlari tufayli harbiy qurollar ishlatmasdan, tinch yo'l bilan mustaqillikka erishdik. Istiqlol bizni istiqbol sari yetaklab, hayotimizning barcha jabhalariga yangilanish, poklanish ruhini olib kirdi. U bizga dunyoning hamma tomonlariga iymonib turgan imkoniyat eshiklarini ochib berdi. Dilimizda tugilib turgan tugunlar yechila boshladi, armonlarimiz asta-sekin ushala bordi. Eng asosiysi, millatimiz boyligi, bebaho ma'naviy mulkimiz bo'lgan ona tilimiz – o'zbek tilida fikrlash, gapirish va yozish imkoni tug'ildi. O'zligimizni anglay boshladik, shu anglash barobarida o'zligimizni namoyon ham qila boshladik. Bu, albatta, ruhiyatimiz ehtiyojiga aylangan edi. Millatning, xalqning kelajagi birinchi galda faqat ona tiliga bog'liqligini o'z davrida juda ko'p buyuk, daho shaxslar e'tirof etgani ma'lum. Ular tili unutilgan xalqni, millatni yo'qolib ketishini qayta-qayta eslatib o'tishgan, bu haqda tarix bizga juda yaxshi saboq berdi. Shu bois mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq milliy qadriyatlarimizni ko'tarish va ona tilimiz muammosi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi hamda eng muhim masalalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi. Respublika Oliy Kengashi qoshida til bo'yicha jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komissiya tashkil qilindi. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun e'lon qilindi. Davlat dasturi tuzildi. Dasturni ijro etish uchun joylarda "Til markazlari" tashkil qilindi, u yerga yetuk, malakali mutaxassislar jalb qilinib, til o'rganish uchun qulay sharoitlar yaratildi. Eng asosiysi, ona tilimiz – o'zbek tili (turkiy tillarning biri sifatida nazarda tutilmoqda – A.R.) amaldagi rasmiy idora tili sifatida kuchga kira boshladi.

O'zbek tili davlat tili maqomini olgach, ona tilimizning ohangi, ma'no jilosi, uning go'zalligini namoyon qilish maqsadida davlat apparati, O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi tarkibidagi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot ilmiy tadqiqot

instituti, bugungi O‘zFA Alisher Navoiy nomidagi Til, adabiyot va folklor ilmiy tadqiqot instituti, shuningdek, respublikamizdagi universitet va oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlarining yetakchi xodimlari, qo‘yingki, hayotimizning barcha jabhasi va sohalarida chetdan kirib kelgan so‘z, so‘z birikmalari, ibora va turg‘un iboralarni o‘zbekchalashtirish yo‘lida shiddatli filologik harakat boshlandi. Bu borada Vazirlar Mahkamasi qoshida, yetuk mutaxassislardan iborat bo‘lgan maxsus Atamashunoslik qo‘mitasi tashkil qilindi.

Ta’kidlashimiz joizki, istiqlol sharofati tufayli yana tilimizga yangi-yangi so‘zlar kirib kelib, milliy tilimizni bir qadar boyitganini ham tan olishimiz kerak. Chunonchi, *“barter – mol ayirboshlash, biznes – tijorat, biznesmen – tijoratchi (ishbilarmon), birja – tijoratxona, broker – professional vositachi yoki dallol, banknot – qog‘oz pul, dizayn – badiiy bezak, dizayner – badiiy bezak ustasi, makler – savdo vositachisi yoki dallol, investor – biron ishga mablag‘ sarflavchi, investisiya – biron ishga mablag‘ sarflash, aksiya – hissa, pay, sanatsiya – sog‘lomlashtirish, kredit – qarz”* va yana shunga o‘xshash, *“aksiyadorlik jamiyati, auditorlik xizmati, supermarket, lizing, menedjer, marketing, mentalitet”* va h.k.z. kabi so‘zlar shular jumlasidandir.

Darvoqe, fan amaliyotiga birgina *“kompyuter”* elektr jihozining kirib kelishi bilan *“fayl, klaviatura, diskovod, skaner, printer, monitor, vinchester, internet, elektron pochta, sayt, sichqoncha”* singari o‘nlab yangi so‘zlar o‘zbek tili lug‘at qatlamidan joy olib, milliy tilimizni bir qadar boyitgani hamda ular bugun kundalik hayotimizda faol ishlatilayotganini ham tan olmog‘imiz kerak. Shular barobarida, *“kommunizm, sotsializm, sovet, marksizm-leninizm, markscha-lenincha falsafa, sotsialistik lager”* singari asrlar davomida iste’molda bo‘lgan bir qator so‘z va so‘z birikmalari, shuningdek, *“SSSR, KPSS”* singari qisqartma otlar ham bor ediki, ular bugungi kundalik hayotimizdan chiqib ketdi, arxaiklashdi.

Darhaqiqat, til milliy boylik ekan, ana shu *“milliy boylik”* birikmasi jimjimador atama bo‘lib qolmasligi uchun, uni asrab-avaylash, rivojlantirish, qisqasi, jonimizga jo qilish maqsadida jumhuriyatimizda sodir bo‘layotgan ma’naviy-ma’rifiy jarayon qanday kechmoqda?

Avvalo shuni aytish kerakki, rus tilidan o‘tgan so‘z va atamalarning ko‘pchiligi til taraqqiyoti talablariga mos holda o‘zbek tilida ularning o‘rnini bosa oladigan so‘z bo‘lmagani bois va shunday so‘zni yasash ham mumkin bo‘lmaganlik hollarida qabul qilingan. Shuning uchun ham mazkur so‘zlar o‘zbek tilidan mustahkam o‘rin olib, shu tilning o‘z so‘zlariga aylanib ketgan. Masalan, *“yadro, lampochka, elektr, radio, fizika”* kabi o‘nlab so‘zlar shular jumlasidandir.

Binobarin, bunday so‘zlarni boshqa so‘zlar bilan almashtirishga, o‘zbek tilidan chiqarishga hech qanday asos ham, ehtiyoj ham yo‘q. Bunday chakki urinishlar o‘zbek tiliga, uning iste’molchisiga ham zarardan boshqa narsa keltirmaydi. Chunonchi, *“gazeta, jurnal, institut, fakultet, stadion”* so‘zlarini *“ro‘znoma, oliygoh, kulliyot, o‘yingoh”* kalimalari bilan almashtirishga urinish bu fikrimizga dalil bo‘la oladi va mazkur fakt o‘tgan asrning 20–30-yillaridagi *“samovar, traktor, tramvay”* so‘zlarini *“o‘ziqaynar, o‘tomoch”* so‘zlari bilan almashtirish kabi asossiz va samarasiz yakunlangan urinishlarni eslatadi, deb izoh bergan edi akademik Azim Hajiyev

o‘zining “Termin tanlash mezonlari” risolasida.

Ayni paytda xuddi o‘z ona tilimizdek bo‘lib, madaniy nutqimizga singib ketgan “*redaktor, doklad, muzika, sekretar, student, doktor, plan, tekst, programma, grupp, avtor*” singari aksariyat so‘zlar tarjimasida “*muhammad, ma’ruza, musiqa, kotib, talaba, shifokor, reja, matn, dastur, guruh, muallif*” bo‘lib allaqachon o‘zbek tili iste’moliga kirib ketganligini ham qayd etish darkor.

Tilshunoslik ilmiy jarayonida hali-hamon so‘z va iboralar iste’molga tavsiya qilinmoqda. Ammo ayni paytda o‘zbek tilida muqobil varianti bor bo‘lgan quyidagi “*manzil, oynayijahon, changyutar, amaliyot*” yoki “*tajriba, andoza*” yoki “*ulgi, devon, adad*” kabi atamalarni biz bugun ham “*adres, televideniye, pilesos, praktika, standart, apparat, tiraj*” deb amaliyotda ishlatishimiz to‘g‘rimikan?!

Shu o‘rinda, yana sevimli qirg‘iz adibimiz Ch.Aytmatovning “*.....O‘ris tili – buyuk til*”, ammo bu degani boshqa milliy tilning ichki qonuniyatlarini nazarga ilmay, unga o‘ris tilidan shart bo‘lmagan so‘zlarni olib kiraverish mumkin degani emas...” kabi fikrlarini eslash joizdir. Jadid Mahmudxo‘ja Behbudiy esa “*Ikki til emas, to‘rt til kerak*” nomli maqolasida: “*Bizga lozimki, o‘z na’fimiz uchun ruscha bilaylik, ... Zero, o‘z tilimizni unutmoq, chetga surmoq evaziga o‘zga tillarni o‘rganmoqqa oshiqsak, bu bizning katta yo‘qotishimiz bo‘ladi*” – deganida ming bora haq edi.

Binobarin, ona tilimiz, milliy tilimiz – o‘zbek tili davlat tili bo‘lganiga ham mana 30 yildan oshibdi. Bu taraqqiyot uchun, tilimizni tozalash uchun, tashqi siyosiy kuchlardan asrash uchun, kichkina muddat emas. Biroq o‘zbek tili borasida tinmasdan qarorlar chiqayotgan, o‘nlab buyruqlar, farmoyishlar berilayotgan bir paytda, ba’zi joylarda o‘zbek tili hanuzgacha begonadek. Majlislar rus tilida olib borilayotgan holatlar ham yo‘q emas. Aksariyat hollarda hali-hamon ariza yozish rus tilida, rasmiy idoralarda hujjatlar rus tilida to‘ldirilmoqda. Bu kabi hollarni, ayniqsa, davlat idoralari, davlat banklari sistemalarida uchratish mumkin.

Ba’zi bir davlat tashkilotlardan chiqayotgan va muassasalarga kirib kelayotgan xatlar va rasmiy hujjatlar ham rus tilida, hamon bu xatlarning o‘zbek tilida namuna shakli yaratilmagan. Bunga kundalik amaliy hayotimizdan o‘nlab misollar keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, respublikamizdagi o‘qish, o‘qitish ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar, universitet va oliy o‘quv dargohlarida bu hollarni uchratish juda achinarli holdir.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov haqli ravishda ta’kidlaganidek, bugungi kunda “*o‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalombor rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin*”. Bas, shunday ekan, nima uchun biz o‘zbek tili haqidagi qonunni qabul qildik, nima uchun har yili tantanali ravishda qonun qabul qilingan kunni bayram qilamiz?! Bu ma’rifiy-madaniy harakat milliy tilimizni, o‘zbek degan o‘ziga bek xalqimizni, millatimizni yo‘qotib qo‘ymaslik uchun emasmidi?! Bu ma’rifiy-madaniy harakat nomlari tarix sahifalaridan o‘chay-o‘chay deb qolgan yoki nomlari toptalgan avlod-ajdodlarimizni, ota-bobolarimiz-u momolarimizni, bir so‘z bilan aytganda, milliy qadriyatlarimiz nomlarini ko‘tarish uchun emasmidi?! Bas, shunday ekan, qonunning ijrosi qayerda qoldi?! Mazkur masala bilan kimlar

shug‘ullanmog‘i kerak, bu kabi ishlarga kimlar ma’sul? Buni kimlar nazorat qilmog‘i darkor? Savol ustiga savollar tug‘ilaveradi. Nazarimizda mazkur dolzarb masalaga, bugungi kunda qalbida “*vatan, millat tuyg‘usi*” barq urgan barcha ziyolilar birdek mas’uldirlar.

Har bir o‘tish davrining o‘ziga xos muammolari, qiyinchiliklari bo‘lganidek, o‘tish jarayonining ham o‘ziga yarasha muammolari, qiyinchiliklari namoyon bo‘lmoqda. Ch.Aytmatov aytganidek “*til madaniyatimiz ustuni*” ekan, yana so‘z qimmatiga, til qadriga qaytishimizga to‘g‘ri keladi, chunonchi, “*institut – oliygoh, fakultet – kulliyot, samolyot – tayyora yoki uchoq, poyezd – otasharava*” singari bir qator so‘zlar o‘girmasi borki, ular ham o‘zbek tili iste’moliga tez singib ketmadi, natijada o‘z holida qoldirildi. Ba’zan esa ish jarayonida noto‘g‘ri tarjimalar va talqinlarning ham guvohi bo‘lmoqdamizki, bu ham, albatta, bugungi kunimizda yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir. Jumladan, ish jarayonida, o‘quv amaliyotida faol ishlatilayotgan “*metod*” so‘zini olaylik. Bu xususan hatto 1998-yil matbuotda – Oliy attestatsiya komissiyasining “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida mukammal maqola ham e’lon qilingan edi.

Darvoqe, shu satrlar muallifi – kaminaning ham 1998-yil aprel oyida Samarqand shahrida “Milliy kadrlar tayyorlash” dasturi Kengashida aynan shu so‘z va u bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi atamalar, ya’ni “*учебно-методическая работа, учебно-методический план, учебно-методическая программа, учебно-методическая конференция, учебно-методический центр, учебно-методическая помощь*” singari so‘z birikmalarining “*o‘quv-uslubiy ish, o‘quv-uslubiy reja, o‘quv-uslubiy dastur, o‘quv-uslubiy anjuman, o‘quv-uslubiy markaz, o‘quv-uslubiy yordam*” shaklidagi tarjimalari bo‘yicha qilgan taklif va tanqidiy chiqishlari mutasaddi tashkilot va Oliy ta’lim vazirligi xodimlari tomonidan inobatga olinib, mazkur “*metod*” so‘zi tarjima qilinmay, o‘z holicha qoldirilishi kerak degan to‘xtamga kelingan edi. Shunga qaramasdan, amaliy hayotimizda asosan o‘quv jarayonlarida hanuzgacha bu borada kamchiliklar, chalkashliklar ko‘zga tashlanmoqda.

Shu bilan birga, “*metodika, metodist, metodologiya, metodolog*” singari so‘zlarining tub o‘zagi “*metod*” ekanligi kundek ravshan. R.Abdurahmonov tahriri ostida chiqqan “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da “*memod*” so‘zi “*metod, usul, yo‘l*” deb tarjima qilingan. Z.M. Ma’rufov tahriri ostida chiqqan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa, bu so‘zga birmuncha kengroq ta’rif beriladi. Chunonchi, “*metod*” (r<grek)-rus-grek tillaridan kelib chiqqan bo‘lib, ikki xil mazmun kasb etgan. Birinchi ma’nosiga ko‘ra, “*tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli*”, ikkinchi ma’nosi esa “*biror ishni bajarish, ado etish, amalga oshirish usuli yoki usullari sistemasi (tizimi), “dars berish metodi*” deb izoh berilgan.

Demak, “*metod*” – bu “*usul*” ekan, zinhor “*uslub*” emas. Afsuski, “*metodist*” so‘zi ba’zi hollarda radio-televideniye va vaqtli matbuotlarda hali-hamon (aksariyat hollarda – A.R.) “*uslubchi*” yoki “*uslubiyotchi*” deb aytilmoqda va yozilmoqda. Axir “*uslubchi*” yoki “*uslubiyotchi*” bu rus tilida “*metodist*” emas, “*stilist*” deganiku! Biroq O‘zR Oliy attestatsiyasi komissiyasining 1996-yil 1- va 2-sonlaridagi Axborotnomasida “*научно-методическая работа*” – “*ilmiy-usuliyat ishlari*”

(80-bet), “*учебно-методическая работа*” – “*o‘quv-usuliyat ishlari*” (72-bet), “*no metode*” – “*usuliyat jihatdan*” (79-bet) deb berilgan hollar ham uchraydi.

Agar “*metod*” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan birikmalarga yana qaytadigan bo‘lsak, bu so‘z birikmalari ko‘pgina oliy o‘quv dargohlarida, professor va o‘qituvchilar jamoalarida hali-hamon “*o‘quv-uslubiy ish, o‘quv - uslubiy reja, o‘quv-uslubiy dastur, o‘quv uslubiy konferensiya* (hatto, bu o‘rinda “*konferensiya*”ni “*anjuman*” deb berish o‘rinli bo‘lsa-da – A.R.), *o‘quv-uslubiy markaz, o‘quv-uslubiy yordam*” shaklida noto‘g‘ri talqin qilinib, allaqachon iste’molga kirib ketgan va O‘zbekiston Respublikasining barcha universitet hamda oliy o‘quv yurtlari hujjatlarida “*uslub, uslubiy*” shaklida qo‘llanilib kelinmoqda.

Mabodo, ushbu o‘zbekcha so‘zlar birikmasini ruschaga ag‘darish zarurati tug‘ilsa, “*учебно-стилистическая работа, учебно-стилистический план, учебно-стилистическая программа, учебно-стилистическая конференция, учебно-стилистический центр, учебно-стилистическая помощь*” kabi shakl va mazmun paydo bo‘ladi. Demak, mazkur so‘z rus tilidan o‘zbekchaga o‘girilganda “*uslub*”, o‘zbek tilidan ruschaga ag‘darganda “*stil*” bo‘lib qolmoqda.

Shu o‘rinda, “*metod*” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator so‘z birikmalarining O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot instituti (Bugungi kunda mazkur ilmiy dargoh O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Alisher Navoiy nomidagi Til, adabiyot va folklor ilmiy-tadqiqot instituti) ilmiy xodimlari tomonidan tayyorlangan “*Qisqacha ruscha-o‘zbekcha-inglizcha ish yuritish lug‘ati*”da to‘g‘ri va aniq tarjima qilinganini qayd etishga to‘g‘ri keladi. Ammo aynan o‘sha amaliy ish yuritish lug‘atida “*учебно-методическая работа*” (104-bet) so‘zlar birikmasini “*o‘quv-uslubiy ish(lar)*” deb berilish holini qanday tushunmoq kerak?!

Ma’lumki, shu kunlarga qadar “*установка*” so‘zi aksariyat hollarda “*nizom*” deb berilib kelinayotganini ham eslashga to‘g‘ri keladi. Maboda “*установка – nizom*” bo‘ladigan bo‘lsa, unda “*положение*” qanday o‘giriladi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Aslida, “*nizom – положение, установка*” bo‘lsa, “*metod*” so‘ziga o‘xshab o‘z holicha qoldirilmog‘i darkor. Bizning fikri ojizimizcha, “*metod*” va u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha so‘z va so‘z birikmalarini o‘z holicha qoldirish zarur, deb hisoblaymiz, shu jumladan, “*ustav*”ni ham. Xuddi shuningdek, “*apparat*”, ya’ni “*davlat apparati, partiya apparati, ilmiy apparat*” singari so‘z birikmalari ham tarjima qilinmaydi.

Milliy tilimiz mas’uliyatini his qilib, tildagi har bir so‘z va ibora qadrini chuqur anglagan holda yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, aytish joizki, ona tilimizni chetdan kirib kelgan har xil yot unsurlardan imkon qadar tezroq tozalash darkor. Bu esa bugungi kun tarjimon va tarjimashunoslarimiz oldida turgan dolzarb masaladir.

Shu ma’noda, ba’zi bir “*metod, ustav, apparat*” kabi so‘z va ular bilan bog‘liq bo‘lgan, yuqorida keltirganlarimiz, so‘z birikmalariga o‘xshash nutqimizda faol ishlatilayotgan chalkash tarjimalarga tezlik bilan aniqlik kiritishimiz lozim. Bu milliy tilimiz sofliги hamda taraqqiyotini ta’minlaydigan yagona omillardan biridir. Aks holda, bu hol tilimiz taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz. Bu esa yetuk

mutaxassislarimiz, ya'ni tilshunos va tarjimashunos olimlarimiz zimmasiga mas'uliyat yuklash barobarida, tilimiz soffligi uchun kurashgan, o'tmishda jonini fido qilgan, yuqorida tilga olganimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Vadud Maxmud, Yunus Mashriq – Elbek singari jadid ma'rifatparvar bobolarimiz ruhini shod aylaydi, deb o'ylaymiz.

Qissadan hissa shuki, tilshunos mutaxassislarimiz o'quv metodik va murabbiylik ishlari bilan bog'liq atamalar, rus va chet tillaridan kirib kelib, o'zlashib ketgan baynalminal so'zlar, mustaqillikdan keyin paydo bo'lgan yangi so'z (neologizm) va atama (termin)lar, shuningdek, milliy koloritli (ohangli) ma'ishiy so'zlarni bir nuqtaga jamlab, ular ustida jiddiy tadqiqot ishi olib borishsa; shuningdek, bir necha til mutaxassisi birikib shu soha mutaxassislari uchun zarur bo'lgan va ish stolidan doimiy joy oladigan yangi bir mukammal, fundamental lug'at yaratilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Demak, "tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlar, avvalambor, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning qo'llanishi sohasining ancha kengaytirilgani, xalqaro munosabatlarda ishlatiladigan tillar qatoriga kiritilishi keyingi yillarning bu boradagi ulkan yutug'idir." Yangi ijtimoiy-siyosiy davlatimiz bunyod bo'lgan, milliy ongimiz shakllanayotgan bir pallada, mazkur tadqiqot ish O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ilmiy-o'quv markazining tinglovchilari, akademiya sistemasidagi barcha ilmiy tadqiqot institutlarining ilmiy xodimlari, shuningdek, respublikamizning barcha universitet va oliy o'quv yurtlarining doktorantlari, magistr va bakalavr talabalariga ham o'quv jarayonida asqotishi mumkin, deb hisoblaymiz. Bu ma'rifiy harakat ilmiy-ma'naviy hayotimizdagi bo'shliqlarni to'lg'azish barobrida, ona tilimiz soffligi uchun foydadan holi bo'lmaydi hamda uni yot unsurlardan tozalash yo'lidagi ishlarning debochasi bo'lsa, ajab emas.

Xulosa fikr shuki, "zar qadrini zargar bilar" deganlaridek, so'z qadriga, avvalambor, so'z san'atkorlari, so'z ustalari, tilshunos olimlar, badiiy ijod sohiblari yetishlari tabiiy. Bu ilmiy-ma'rifiy jarayonda ular faol ishtirok etadi degan umid bilan qolib, fikrimizni yana taniqli shoirimiz Xurshid Davronning quyidagi satrlari bilan yakunlashni joiz topdik:

Ona tilim, omon bo'l mangu,
Sen borsanki, men ham o'lmayman,
Tildan qolsam, seni Oybekday
Men ko'zlarim bilan so'zlayman.